

STARTAP LOYIHALARINING MOLIYAVIY TUZILISHI, MANBALARI, KAPITALNI JALB QILISHDA INVESTORLARNING ROLI HAMDA MOLIYAVIY BOSHQARUVI

MELIZIYAYEV ISLOMBEK IKROMJON O'G'LI

Annotatsiya: Xususiy moliyalashtirish iqtisodiyotning rivojlanishiga xizmat qiluvchi asosiy mexanizmlardan biri bo'lib, korxonalar va loyihalarning barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi hamda uning zamonaviy shakllari, xususan, venchur kapital va Kraudfanding, innovatsion g'oyalarni amaliyotga joriy etishda sezilarli hissa qo'shadi.

Kalit so'zlar: Moliyalashtirish, startaplar, moliyalashtirishning shakllari, mentorlar loyihasi, ijtimoiy manfaatdorlik, trening, biznes, startaplar, tanlov, moliyaviy resurslar, infratuzilmani rivojlantirish, ta'lim, sog'liqni saqlash, texnologik yangiliklar, loyiha taqdimoti, yoshlar uchun yangi imkoniyatlar, rivojlanish, g'oliblar, grantlar, moliyalashtirish manbalari.

Startaplarning moliyaviy tuzilishi ularning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun juda muhimdir. Ular boshlang'ich bosqichda o'z faoliyatini davom ettirish va rivojlantirish uchun turli moliyaviy manbalar va kapitalni jalb qilish strategiyalariga muhtoj. Shu bilan birga, startaplar uchun kapitalni jalb qilishda investorlarning roli bevosita katta ahamiyatga ega, chunki ular kompaniyaning o'sishiga yordam berishlari, yangi texnologiyalarni joriy etishlari va bozorda raqobatbardoshligini oshirishlari mumkin.

Moliyalashtirishning asosiy shakllari - Moliyalashtirishning shakllari u amalga oshirilayotgan manbalar, vositalar va shartlarga qarab farqlanadi.

Davlat moliyalashtirish - Bu iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishni ta'minlash maqsadida davlat byudjeti, maxsus fondlar yoki davlat tashkilotlari orqali mablag' ajratish jarayonidir. Bu shakl odatda ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan loyihalarni, infratuzilmani rivojlantirish, ta'lim, sog'liqni saqlash va texnologik yangiliklarni qo'llab-quvvatlashda qo'llaniladi. Davlat moliyalashtirish davlat tomonidan taqdim etiladigan grantlar, subsidiyalar va imtiyozli kreditlar orqali amalga oshiriladi.

Xususiyatlari:

- Odatda ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyatga ega loyihalarni qo'llab-quvvatlash uchun ajratiladi.
- Qaytarib berish shartlari yo'q yoki imtiyozli sharoitlarda amalga oshiriladi.

Davlat tomonidan moliyalashtirishning afzalliklari:

- Ijtimoiy manfaatdorlik: Davlat moliyalashtirishi orqali ko‘plab ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalar amalga oshiriladi.
- Barqarorlik: Davlat tomonidan kafolatlangan mablag‘ manbai loyihalarni barqaror amalga oshirishni ta‘minlaydi.
- Xavfsizlik: Mablag‘lar davlat nazorati ostida bo‘lgani sababli moliyaviy xavflar minimal darajada bo‘ladi.

Davlat tomonidan moliyalashtirishning kamchiliklari:

- Byudjet cheklovlari: Davlat byudjeti mablag‘lari yetarli bo‘lmagan hollarda moliyalashtirish chegaralanadi.
- Byurokratik to‘siqlar: Mablag‘larni olish jarayonida ko‘plab hujjat va rasmiyatchilik talab etiladi.
- Qaramlikka olib kelishi: Doimiy davlat yordamiga tayanish xususiy sektor mustaqilligini pasaytirishi mumkin.

Misol: Innovatsion rivojlanish agentligi tomonidan tashkil etiladigan tanlovlarga asosan ilmiy faoliyatga oid davlat dasturi doirasida ajratiladigan mablag‘lar hisobidan moliyalashtiriladigan startup loyihalar.

Xususiy moliyalashtirish – bu korxonalar, loyiha yoki tashabbusni amalga oshirish uchun o‘z yoki xususiy sektorning boshqa subyektlari tomonidan mablag‘ ajratish jarayonidir. Bu shakl xususiy investorlar, kompaniyalar va boshqa tijorat tashkilotlari tomonidan taqdim etiladi. Xususiy moliyalashtirish odatda tijorat maqsadlarini, ya‘ni foyda olishni ko‘zlaydi va investorlarning loyihadagi ishtiroki, rentabellik darajasi va xatarlar bilan bog‘liq. Xususiy moliyalashtirish xususiy kompaniyalar, investorlar yoki fondlar tomonidan amalga oshiriladi.

Xususiyatlari:

- Investorlar foyda olish maqsadida mablag‘ kiritadi.
- Qaytarish shartlari va rentabellik darajasi muhim omil hisoblanadi.

Xususiy moliyalashtirishning afzalliklari:

- Tezkorlik: Moliyalashtirish jarayoni odatda davlat moliyalashtirishiga qaraganda tezroq amalga oshiriladi.
- Moslashuvchanlik: Xususiy moliyalashtirish shartlari ikki tomonning kelishuviga ko‘ra moslashtirilishi mumkin.
- Xatarlarni taqsimlash: Investorlarning startapda ishtiroki xatarlarni taqsimlash imkoniyatini beradi.
- Qo‘shimcha xizmatlar: Investorlar moliyaviy ko‘mak bilan birga biznes maslahatlarini ham taklif etadi.

Xususiy moliyalashtirishning kamchiliklari:

- Moliyaviy bosim: Investorlar o‘z ulushidan maksimal foyda olishni kutadi, bu esa loyiha uchun moliyaviy yuk bo‘lishi mumkin.
- Nazoratni yo‘qotish xavfi: Investorlarning loyihada nazorat qilish huquqi ortishi mumkin.
- Qimmat moliyalashtirish: Xususiy kapital davlat mablag‘lariga qaraganda yuqori foiz stavkalari yoki katta daromad ulushini talab qiladi.

Misol: Artel kompaniyasi o‘z tarkibidagi Tadqiqotlar va innovatsiyalar markazi faoliyatini doimiy moliyalashtirib turishi.

Startup Garage platformasi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Hargadon Endryu. Innovatsiyalarni boshqarish. Etakchi kompaniyalarning tajribasi, M., 2007 — 304-bet. ISBN 1-57851-904-7.
2. Drucker, Piter Ferdinand. Biznes va innovatsiya, M., 2007 — 432-bet. ISBN 0-88730-618-7.
3. Shemetev A.A.. Innovatsion menejmentning xalqaro standartlari / o‘quv qo‘llanma(oliy o‘quv yurtlari talabalari va avangard o‘qituvchilari uchun), 2014. ISBN 978-1-62951-210-5.
4. Отчет S&P Global Market Intelligence о глобальных сделках слияний и поглощений и размещении акций за 4 квартал 2024 года.